

2026-yil – “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”



IJODIY PARVOZ

O'ZBEKISTON
DAVLAT SAN'AT
VA MADANIYAT
INSTITUTINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY,
ILMIY, IJTIMOY
GAZETASI

2026-yil iyul № 7 (146) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz



O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTIDA 2026/2027-O'QUV YILI QABULI DOIRASIDAGI KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR BO'LIB O'TDI

Quyidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha hujjat topshirgan abituriyentlar o'zlarining ijodiy salohiyati, kasbiy tayyorgarligi va bilimlarini namoyon etmoqda:

TEXNOGEN SAN'AT:

kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi ta'lim yo'nalishi;

Kinoteleoperatorlik ta'lim yo'nalishi;

AKTYORLIK SAN'ATI:

dramatik teatr va kino aktyorligi ta'lim yo'nalishi;

REJISSYORLIK:

dramatik teatr rejissyorligi ta'lim yo'nalishi;

AKTYORLIK SAN'ATI:

estrada aktyorligi ta'lim yo'nalishi (ta'lim tili Rus tili);

REJISSYORLIK:

estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligita'lim yo'nalishi;

XALQ IJODIYOTI:

cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'nalishi;

XOREOGRAFIYA:

xoreografiya jamoalari rahbari ta'lim yo'nalishi.

Imtihon jarayonlarini institut prorektorlari hamda Jamoatchilik kengashi a'zolari bevosita kuzatib bordilar. Ular imtihonlar o'tkazilayotgan auditoriyalarda yaratilgan shart-sharoitlar, baholash mezonlariga rioya etilishi hamda jarayonlarning adolat, xolislik va shaffoflik tamoyillari asosida tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratdilar.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 2026 2027-o'quv yili qabuli uchun kasbiy ijodiy imtihonlar yakunlanadi.



ILM-MA'RIFATGA BAXSHIDA UMR



Insoniyat taraqqiyoti yo'lida ilm va ma'naviyatni o'z hayotining bosh mezoniga aylantirgan siymolar har qanday davrning eng katta boyligi sanaladi. Bunday insonlar nafaqat o'z kasbiy faoliyati orqali, balki yuksak insoniy fazilat-lari, ma'rifatparvarlik qarashlari va jamiyat ravnaqiga qo'shayotgan munosib hissasi bilan ham alohida e'tirof etiladi. Ularning hayot yo'li ilmga sadoqat, ezgulikka intilish va xalq manfaatlariga fidoyilikning yorqin ifodasidir. Bugun ham ilm-fan va ma'naviyat maydonida samarali faoliyat yuritayotgan ana shunday fidoyi insonlar borligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Ularning serqirra faoliyati zaminida nafaqat chuqur bilim va tajriba, balki inson qalbini anglay olish, yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, ma'rifat va tafakkur rivojiga xizmat qilishdek ulug' maqsadlar mujassam. Ular ilmni shunchaki kasb emas, balki xalq va Vatan oldidagi sharaflı mas'uliyat deb biladilar.

Davomi 2-betda

Bugungi sonnda:

AYOLGA E'TIBOR –
jamiyat taraqqiyotining
muhim omili

“O'tgan kunlar”dan
“Yaldo kechasi”gacha:

Millat taqdiri va
tarix xotirasi

**Qutqarilishni
istamaydigan**

olomonni qutqarish
kerakmi?

**YETIMNING
HAQQI**

(Hikoya)

*Mening
faxrim –
yurt posboni*





ILM-MA'RIFATGA BAXSHIDA UMR

BAXTIYOR SAMIYEV,
O'zbekiston Teatr Arboblari
uyushmasi ish yurituvchi kotibi

◀ Boshlanishi 1- betda

Men bugun ana shunday ulug' insonlardan biri – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Mavrulov Abduxalil ustoz Abdulkayevich haqidaso'zyuritmoqchiman. Zotan, hayotda shunday insonlar borki, ularning nomi nafaqat ilm-fan yutuqlari, balki yuksak insoniy fazilatlar, ma'rifatparvarlik faoliyati va el-yurt ravnaqi yo'lidagi fidokorona xizmatlari bilan ehtirom topadi. Abduxalil ustoz ana shunday ziyoli insonlardan biridir. Ustozning sermazmun faoliyati yillar davomida tarix ilmi va milliy tafakkurning boyishi, milliy madaniyatimiz va san'atimizning rivojlanishi hamda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti yo'lida xizmat qilib kelmoqda. Ilmiy izlanishlarga bag'ishlangan umr, murabbiylik mas'uliyatini sharafla ado etish va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi ustoz shaxsiyatining eng yorqin qirralaridan biri sanaladi.

Ustozning hayot yo'lida nazar tashlar ekanmiz, unda ilmga sadoqat, kasbga muhabbat va insonlarga mehr tuyg'usi bir-biri bilan uyg'unlashib ketganini ko'ramiz. Mavrulov Abduxalil ustoz Abdulkayevich 1954-yil 9-avgust kuni Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumaniga qarashli Xo'jand qishlog'ida tavallud topgan bo'lib, ustozning bolalik yillari tashqi shovqinlardan ko'ra ichki mushohada, beozor kuzatuv va atrof olamni anglashga intilish ruhi bilan yo'g'rilgan edi. Qishloqning sodda, biroq mazmunli hayoti, insonlar o'rtasidagi mehroqibat va mehnatga hurmat tuyg'usi yosh yigitning qalbida erta uyg'ongan ma'naviy sezgirlikni yanada mustahkamladi. Ana shu muhitda shakllangan tafakkur keyinchalik ustozni bilimga, tarixni anglashga va insoniyat ma'naviy merosini o'rganishga yetaklovchi ichki chaqiriqqa aylandi. Abduxalil ustozning hayot yo'lida oddiylik ichidan ulug'likka, kamtarlikdan yuksaklikka tomon uzluksiz intilish jarayonini ko'ramiz. Shu tariqa, Xo'jand qishlog'ining sokin bag'rida boshlangan bu hayot yo'li vaqtlar osha kengayib, ilm-fan, ta'lim va ma'naviyat olamiga tutashgan ulkan ma'rifat yo'lida aylandi.

Ustozning ilmga intilishi erta yoshdan boshlangan bo'lib, 1971–1976-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining tarix fakultetida tahsil olishi ustozning tafakkur olamiga mustahkam poydevor bo'ldi. Ana shu davrdan boshlab tarix ilmi ustozning hayot yo'lida aylanib, keyinchalik butun umrini shu soha taraqqiyotiga bag'ishlashiga sabab bo'ldi. Ilmga bo'lgan sadoqat ustozni nafaqat tadqiqotchi, balki yurt ma'naviy hayotining faol ishtirokchisiga aylantirdi. Ustozning mehnat faoliyati 1976-yildan boshlab ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'landi. Angren shahridagi 150-maxsus kasb-hunar bilim yurtida ijtimoiy fanlar o'qituvchisi sifatida boshlagan pedagogik yo'li keyinchalik yirik ilmiy va tashkiliy faoliyatga ulanib ketdi.

Harbiy xizmat yillaridan so'ng ustoz hayot yo'lida yangi, yanada mas'uliyatli va mazmunan boy bosqich boshlanadi. Bu bosqich ustozning taqdirida oddiy mehnat davri emas, balki ilm-fan va ma'rifatga butunlay bag'ishlangan umr yo'lining pishib yetilgan, yetuklik kasb etgan davri sifatida namoyon bo'ladi. Toshkent davlat madaniyat institutida boshlangan ilmiy-pedagogik faoliyati esa ustoz shaxsiyatining ilmiy va ma'naviy qirralarini yanada yorqinroq ochib beradi va haqiqiy ma'rifat fidoyisi sifatida shakllantiradi. U kishi "O'zbekiston tarixi" hamda "O'zbekiston tarixi va madaniyatshunoslik" kafedralarida o'qituvchi, keyinchalik katta o'qituvchi sifatida faoliyat yuritir ekan, tarix fanini shunchaki o'quv predmeti sifatida emas, balki millatning xotirasi, xalqning ruhiy olami va kelajakni anglash kaliti sifatida talqin etishga intildi. Har bir ma'ruza, har bir dars va har bir ilmiy suhbat ustozning nazarida o'tmishni yoritish bilan birga bugunning ma'naviy savollariga javob izlash, shogird qalbida esa tafakkur va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otish vositasiga aylandi. Shu tariqa ustoz o'z atrofida davlatimiz tarixiga, madaniyatiga va ma'naviyatiga yangicha nigoh bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan ilmiy muhitni shakllantiradi.



Vaqt o'tishi bilan Abduxalil ustoz faqat bilim beruvchi o'qituvchi emas, balki keng qamrovli ilmiy dunyoqarashga ega, yuksak tashkilotchilik salohiyati bilan ajralib turuvchi rahbar sifatida ham tanila boshladi. Ustozning faoliyatida nafaqat dars jarayoni, balki butun bir ilmiy-ma'rifiy tizimni shakllantirish, ta'lim sifatini yuksaltirish, yosh kadrlarni tarbiyalash va ilmiy maktab yaratish kabi ulkan maqsadlar mujassam edi. Ustoz uchun har bir shogird – kelajakning bir umidli vakili, har bir ilmiy tashabbus esa jamiyat taraqqiyotiga qo'shilgan muhim hissa edi. 1994–2012-yillar oralig'ida Toshkent davlat madaniyat institutida ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor va 2012-2015-yillarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori sifatidagi faoliyati esa ustozning hayot yo'lida alohida sahifa ochdi. Bu davrda ustoz nafaqat institut ilmiy hayotini boshqardi, balki ma'naviyat va ma'rifadni oliy ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida mustahkamlashga xizmat qildi. Ustozning sa'y-harakatlari natijasida ilm va ma'naviyat bir-birini to'ldiruvchi, uyg'unlashgan yagona tizim sifatida qaror topa boshladi.

2015-2017 yillar mobaynida Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi rahbari, shuningdek, 2017-2018 yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ma'naviy-ma'rifiy, madaniyat, san'at va ijodiy tashkilotlarni rivojlantirish masalalari xizmati bosh konsultanti hamda

2018-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi sho'ba mudiri lavozimlaridagi faoliyati ustozning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rini yanada mustahkamladi. Shu tariqa, Mavrulov Abduxalil Abdulkayevichning mazkur faoliyat davri uning shaxsiyatida ilmiy tafakkur, pedagogik mahorat va rahbarlik salohiyati birlashgan noyob uyg'unlikni namoyon etgan davr sifatida tarixda muhrlandi.

Ustozning ilmiy faoliyati ham nihoyatda sermazmun va serqirra yo'nalishlarda shakllangan bo'lib, u kishi tomonidan e'lon qilingan 250 dan ortiq ilmiy ishlar tarix, madaniyatshunoslik hamda san'atshunoslik fanlarining rivojiga qo'shilgan salmoqli hissa sifatida e'tirof etiladi. Bu ilmiy meros nafaqat tor doiradagi mutaxassislar uchun, balki keng jamoatchilik, ma'naviy-ma'rifiy muhit va yosh avlod uchun ham muhim bilim manbai vazifasini o'tamoqda. Ustozning tadqiqotlarida tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, madaniy merosni anglash va milliy tafakkurni boyitishga qaratilgan konseptual yondashuvlar ustuvor o'rin tutadi. Abduxalil ustozning ilmiy qarashlari tarixni shunchaki o'tmish voqealari sifatida emas, balki millatning ma'naviy xotirasi, bugungi taraqqiyotning ildizi va kelajak avlodning yo'nalishini belgilovchi omil sifatida talqin etish g'oyasiga chuqur singdirilgan. Shu bois, ustoz yoshlarni mustaqil fikrlashga, milliy o'zlikni anglashga va ma'naviy tafakkurini yuksaltirishga undaydi. Shu o'rinda ustozning hayot va ijod yo'li shuni yaqqol isbotlaydiki, haqiqiy olim faqat bilim doirasi kengligi bilan emas, balki kamtarlik, halollik, fidoyilik va yuksak ma'naviy fazilatlar bilan ham ulug'lanadi. Ustozning ilmiy va pedagogik faoliyati bugungi yosh avlod uchun ibrat maktabi, ilm-fan va ma'naviyat taraqqiyoti uchun esa mustahkam tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Ustozning pedagogik faoliyati haqida so'z borganda, eng avvalo, ustozning ta'lim-tarbiya jarayoniga yondashuvdagi chuqur mas'uliyat va yuksak ma'naviy mezonlar alohida e'tiborni tortadi. U kishi yosh avlodni faqat bilim bilan qurollantirishni emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, haqiqatni anglashga, voqelikni tahlil qila olishga va Vatanga sadoqat ruhida kamol topishga undab keladi. Zero, ustoz nazarida haqiqiy murabbiylik – tayyor bilimni yetkazish emas, balki shogird qalbida tafakkur uchqunini yoqish, uni izlanishga, o'z ustida ishlashga va yo'lini topishga ilhomlantirishdir.

Abduxalil ustozning pedagogik maktabi ana shu falsafa asosida shakllangan. U kishining saboqlari nafaqat tarixiy bilimlar majmuasi, balki hayotiy tajriba, ma'naviy tarbiya va ilmiy yondashuv uyg'unligidan iborat bo'lib, har bir shogird uchun mustahkam hayotiy yo'l-yo'riq vazifasini o'taydi. Shu bois, ustoz tarbiyalagan shogirdlar orasidan bugungi kunda ko'plab professorlar, fan doktorlari, oliy ta'lim muassasalari rektorlari va prorektorlari, yirik tashkilot hamda idoralarda mas'ul lavozimlarni egallagan yetuk mutaxassislar yetishib chiqqan. Bu natija ustozning fidokorona mehnati, izchil pedagogik faoliyati va ilmga sadoqatining yorqin ifodasidir. U kishi yaratgan ilmiy-pedagogik muhit shogirdlar qalbida nafaqat bilimga intilish, balki mas'uliyat, halollik va jamiyat oldidagi burch hissini ham shakllantirib kelmoqda. Shu jihatdan ustozning ta'limdagi xizmatlari bugun ham o'z samarasini berib, turli sohalarda faoliyat yuritayotgan yetuk kadrlar orqali o'zining davomiyligini namoyon etmoqda.

Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlaganimizdek, olimlik va insoniylik uyg'unlashgan siymolar jamiyatning eng katta ma'naviy boyligidir. Mavrulov Abduxalil ustoz Abdulkayevich ana shunday betakror boylikni o'zida mujassam etgan, ilm nuri va ezgulik ziyosini atrofga taratib kelayotgan mo'tabar insonlardan biridir. Har bir aytilgan so'z, har bir yetkazilgan fikr ustozning naqadar chuqur bilimga ega, talabchan va shu bilan birga shogirdlar qalbiga yaqin inson ekanligini anglatib turadi. Shogirdlari qatorida Mavrulov Abduxalil ustoz Abdulkayevichga mustahkam sog'lik, uzoq umr, oilaviy xotirjamlik tilayman. Ustozning ilm-fan, ta'lim va ma'naviyat yo'lidagi fidokorona xizmatlari, yoshlar qalbida yoqqan ma'rifat mash'ali hech qachon so'nmasin. Kelgusi faoliyatlarida ham yangi ilmiy yutuqlar, shogirdlar kamoli va xalq e'tirofi doimo hamroh bo'lsin. Ustozning hayoti biz uchun faqat ilm o'rganish emas, balki insoniylik, kamtarlik va ezgulik sabog'i bo'lib qoladi. Shu bois, ustozga bo'lgan hurmatimiz cheksiz. Har bir yangi kunlari baraka, quvonch va ilmiy ilhom bilan to'lishini tilaymiz.

AYOLGA E'TIBOR – jamiyat taraqqiyotining muhim omili

“Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi”.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi davlatlar rivoji hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan.

Insoniyat tarixini qadim ibtido zamonlardan buyon ayollarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular erkaklar bilan bir qatorda ham oilani, ham jamoa ishlarini bajarib kelgan. Tariximizga nazar tashlasak ayol oila, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanib qolmay, o'z turmush o'rtog'ining eng yaqin maslahatgo'yi bo'lganligini, o'z zamonining taniqli shoirasi, davlat rahbari bo'lganligini, turmush o'rtog'i bilan hayot, dunyo tashvishlarini birga tortganini barcha yaxshi biladi. Sharqda ayniqsa ayollarga hurmat cheksiz bo'lib, ular ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol bo'lganlar. Bular sirasiga: To'maris, Saroymulkxonim, Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin va boshqa shu kabi ayollar kiradilar.

Dunyoda jamiyatning nufuzi, ong-u tafakkuri, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini belgilovchi, ta'lim-tarbiyasini takomillashtiruvchi xil-qat – ayoldir. Xotin-qizlarga bo'lgan munosabat, hurmat-izzatni davlatning ularga bo'ladigan munosabatida belgilash mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, ayollarni ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yuksak madaniyati va oliyanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan millat sifatida hurmat qozonadi. Ayolsiz hayotni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular jamiyatning yetakchi kuchlaridir. Zero, ayol kamolotsiz jamiyat kelajagi bo'lmasligiga to'la ishonch hosil qilamiz.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “Ayollarni izzat-ikrom qilish, ulug'lash, ardoqlash, og'irini yengil qilish otabobolarimizdan qolgan muqaddas udumdur. Ma'lumki muqaddas Qur'oni Karimning eng katta suralaridan biri – “Niso”, ya'ni “Ayollar” deb ataladi. Alloh Taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etadi va bu ilohiy so'zlar zahirida albatta teran hikmat mujassam”.

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat ko'rsatish xalqimiz uchun azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan. Biz oilani ilk tarbiya o'chog'i sifatida e'tirof etamiz. Mana shu oilaning ustuni, tarbiyalanuvchilarini boshqaruvchi zot – Ona! Albatta ona yaratganning buyuk mo'jizasidir, chunki ona avlodlar davomiyligini, oila tinchligini ta'minlaydi, barkamol avlodni tarbiyalaydi, kelajakni yaratadi.

Darhaqiqat, Alloxning mo'jizasi bilan Payg'ambarimiz Muhammad Alayhis-salomni dunyoga keltirgan zot – ayol, Amir Temurni beshigini tebratgan zot ham ayol,

Navoiyni oq sut berib katta qilgan ham ayol, tunlarni bedor o'tkazib, Ulug'bekni voyaga yetkazgan ham ayol. Shunday ekan, ayol kishiga eng avvalo millat tarbiyachisi sifatida qaramoq lozim. Shu o'rinda aytish joizki, xotin-qizlarning ilm-ma'rifatli, madaniyatli bo'lishi, ya'ni ayol kishining ijtimoiy hayotdagi, jamiyatdagi o'rni ta'lim-tarbiyani to'g'ri izchil tashkil etishda faol ishtirok etadi. Zero, ayol fuqarolik jamiyati kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash hamda, farzandlar tafakkurini o'zgartirish bilan bog'liq o'ta dolzarb va muhim masalalarni hal qilish qudratiga egadir. Darhaqiqat, ayollarning o'rnini oila qo'rg'onidan tortib, deputat kursisigacha ko'rishimiz mumkin.

Alloma va mutafakkirlar ham baxtli, tinch oila qurish, oila baxtini saqlab qolish, turmush qiyinchiliklarini yenga bilish hamda farzandlar tarbiyasi ayollarga xos xususiyatlar va ularga amal qilish kabi o'g'itlarni meros qilib qoldirganlar. Ular qoldirgan ta'limotlarining bugungi kunda ham ahamiyati beqiyosdir.

Buyuk mutaffakkir Alisher Navoiyning “Mahbub ul qulub” asari oila va oilada ayollarning o'rni haqidagi asar bo'lib, asarda ayollarga bir qator maslahatlar berilgan. “Oila baxti va tinchligi ayolga bog'liq. Oila ayoli orasta, saranjom, oqila bo'lsa, oila tinch, baxtli yashaydi,” deyilgan asarda.

Vatan oila deb atalmish qo'rg'ondan boshlanadi. Demak, oilaning poydevori mustahkam bo'lsa, jamiyat ham mustahkam poydevorga ega bo'ladi.

Tarixga nazar solsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma'rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning Oila asarida shunday fikrlar bor: “Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki farzandlarimiz imonli, fidokor bo'lib ulg'ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur”.

Konstitutsiyamizda ayollar qadr-qim-mati, huquqlar himoyasi bo'yicha insoniy me'yorlar belgilangan. Alohida qayd etish kerak, bugungi kunda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasida “Xotin-qizlar hamda erkaklar teng huquqlidirlar” deya mustahkamlab qo'yilgan.

“Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy tamoyillari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymasligi, ochiqlik va shaffoflikdir”. “Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasidagi keng qamrovli islohotlar, albatta bu borada huquqiy asoslar yaratilgani va takomillashtirib borilgan bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir”, – deb yozadi Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi raisi M. Qodirxonova.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosati xotin-qizlarimizning chinakam baxtli yashashi, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, intellektual va ma'naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarini hamohang tarzda bajarishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Buni yorqin misoli sifatida 2019- yil 3-sentyabrda ikkita muhim hujjat: “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida” hamda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilinganligi asoslidir. Mazkur qonun gender, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish – bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Chunki zo'rvonlik xotin-qizlarning nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy, jismoniy salomatligiga zarar yetkazish barobarida, bir qator ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Xotin-qizlar siyosiy hayotda va ijtimoiy turmush faoliyatida o'z huquqlarining kamsitilishiga duch kelishadi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norbayevaning “Prezident ayollarni hokimlikka tasdiqlayman – deb turganda, biz ularni zo'rvonlikdan asray olmayapmiz”, – degan so'zlari bejiz emasligiga aminmiz. Afsuski, “Ayol kishini gul bilan ham urib bo'lmaydi”, degan naqlni unutib qo'rganlar ham topiladi. Dunyoda eng tengsiz ne'mat hisoblangan hayot insonga Alloh taolo tomonidan bir martagina ato etiladi. Uni farog'atda yashagan el-yurtga, odamlarga yaxshilik istaganlarning umri mazmunli kechadi, ularga hamma havas qiladi, bunday insonlardan yaxshi nom, ezgu



DILNOZA QURBONOVA,
“Tahririyat va nashriyot”
bo'limi muharriri

ishlar qoladi. Zero, tinchlikni ulug' ne'mat deb e'lon qilgan dinimizda – bu yo'lda nafaqat amal bilan, balki so'z bilan ham zarar keltirishdan qaytarilgan.

Mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ayollarning barcha sohadagi samarali mehnati, ayniqsa, oila, farzandlar tarbiyasidagi betimsol xizmatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. Ayolning ilmi bo'lishi uning oilasi, farzandlari, qarindosh urug'lari va qolaversa, butun jamiyatning ilmi, madaniyatli bo'lishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda Xitoy faylasufi Konfutsiy aytgandek, “*Erkak ilmi bo'lsa – nari borsa bir kishi ilmi bo'ladi, ayol ilmi bo'lsa – millat ilmi bo'ladi*”. Demak, qadimdan oq ayollarning ilmi, oqila, fozila bo'lishidan butun jamiyat manfaatdor bo'lib kelgan. Yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli, namunali odobi va tarbiyasi bilan e'tirof etilgan onalarimizning izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta'lim va hatto harbiy sohada xizmatlari beqiyos. Zotan, ayol yuksalsa, butun bashariyat yuksaladi, degan ibora bor. Bugun Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarimiz aziz-u mukarramlarning baland shohsupalariga olib chiqilayotgani ham aynan ushbu hikmatning bardavomligidan dalolatdir. Darhaqiqat, ayol qaysi davr, qanday mavqe, qay bir sharoitda bo'lmasin, baribir muqaddas zot bo'lib qolaveradi.


Ayol oilada turmushning asosiy tirkagi. Oilaning har bir a'zosi uchun mehribon va mushfiq ayollar jamiyat farovonligi uchun ham juda muhim shaxs. O'z oilasida bir gala farzandlar parvarishi, ta'lim-tarbiyasidan ortib, jamiyatda ham katta va zalvorli vazifalarni zimmasiga olgan, uni sharaf bilan uddalab kelayotgan fidoyi ayollar zamonamizning chinakam qahramonlari desak mubolag'a bo'lmaydi.

E'tirof etish joizki, oilaning ma'naviy rahnamosi – ayoldir, onadir. Donolar aytganidek: erkaklar millatning buguni bo'lsa, ayollar uning kelajagi hisoblanadi.

Jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'sha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod farzandlar tarbiyasi, iqtidori, mamlakatdagi intellektual salohiyat, ma'naviyat va madaniyat, ma'rifat, qo'yingki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo'shadigan hissasi va o'sha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Xalqimiz orasida “Ayol bir qo'li bilan beshikni, ikkinchi qo'li bilan dunyoni tebratadi”, degan naql bejiz vujudga kelmagan. Zotan, ayol oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi bilan birga, jamiyatda ham o'z o'rniga ega bo'lmog'i lozim.

“O'tgan kunlar” dan “Yaldo kechasi” gacha:

*Millat
taqdiri va
tarix xotirasi*



“Moziyga qarab ish ko'rmoqlik hayirlidir”

Abdulla Qodiriy

XILOLA RAXMONOVA,
“Kutubxona-axborot
faoliyati” ta'lim yo'nalishi
(sirtqi) 5-bosqich talabasi

tobxon qalbida ham yashaydi. Chunki ular insoniy fazilatlar, vatanparvarlik va ma'rifat timsolidir.

Milliy adabiyotimizda ana shu ulug' asarning badiiy va ma'naviy davomidek e'tirof etilayotgan “Yaldo kechasi” romani yangi davr adabiy hodisasi sifatida katta qiziqish uyg'otdi. Asar Abdulla Qodiriy boshlab bergan tarixiy-badiiy yo'lni davom ettirishga intilib, Turkiston xalqining keyingi tarixiy taqdirini, jadidlar harakati va mustamlaka davrining og'riqli sahifalarini badiiy talqin etadi. Adabiyotshunos Ibrohim G'afurov ushbu asarni yuksak baholab, uni “O'tgan kunlar”ga ijodiy ilova tarzida yozilgan badiiy hodisa sifatida e'tirof etgan. Unga ko'ra, roman Qodiriy an'alarini davom ettirish bilan birga, yangi tarixiy davrning ruhini ham o'zida mujassam etadi.

“Yaldo kechasi” asarida xalq boshidan kechirgan zulmatli yillar ramziy ma'noda “yaldo” – eng uzun tun timsolida ifodalangani. Biroq har qanday uzun tun ortidan tong otgani kabi, asarda ham millatning ma'rifatga, ozodlikka va kelajak sari intilishi bosh g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan roman kitobxonni nafaqat

tarix bilan yuzlashtiradi, balki milliy xotira va ma'naviy uyg'onish haqida chuqur o'ylashga undaydi.

Bugun yosh avlod uchun “O'tgan kunlar” va “Yaldo kechasi” kabi asarlarni ketma-ket mutolaa qilish tariximizni yaxlit anglash, ajdodlarimizning orzu-intilishlarini his etish va milliy o'zlikni teranroq idrok etish imkonini beradi. Bu ikki asarlar bir-birini ma'naviy jihatdan boyituvchi, millatning kechmishi va kelajagini bog'lovchi badiiy ko'prikdir. Kitob insonni tafakkurga, tarix esa xotiraga chorlaydi. Ana shu buyuk asarlar esa kitobxonni o'z tarixini sevishga, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini chuqur anglashga undaydi. Abdulla Qodiriy yaratgan buyuk adabiy maktab va uning ruhini davom ettirgan “Yaldo kechasi” singari asarlar milliy adabiyotimizning bebaho ma'naviy xazinasidir.

O'zbek milliy romanchiligi tarixida Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” asari alohida o'rin tutadi. Bu roman nafaqat muhabbat va faja qissasi, balki Turkiston xalqining XIX asr oxiridagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, milliy qadriyatlari va ozodlikka intilish ruhini badiiy ifoda etgan bebaho durdonadir. Asar yaratilganiga qariyb bir asr bo'lgan bo'lsa-da, uning g'oyalari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

“O'tgan kunlar” o'quvchini Otabek va Kumush muhabbati orqali ezgulik va jaholat, yangilik va eskilik, adolat va zulm o'rtasidagi abadiy kurash haqida chuqur mushohadaga chorlaydi. Qodiriy yaratgan qahramonlar bugungi ki-

Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy faolligi va huquqiy kafolatlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirokini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlarning nafaqat oilada, balki jamiyat va davlat hayotida tutgan o'rni tobora oshib bormoqda. Bu boradagi islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xotin-qizlarning iqtisodiyotdagi faolligi davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. O'zbekiston hukumati ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish, o'z biznesini boshlashda kredit va subsidiyalarni ajratish, kasb-hunar o'rganish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqarmoqda.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, “Ayollar daftari”, “Ayollar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar va qizlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari buning amaliy ifodasidir. Ushbu imtiyozlardan foydalanayotgan xotin-qizlar bugun o'z imkoniyatlarini

yaxshilash bilan birga ish o'rni ham yaratib atrofida qilarga ham foydasi tegib daromadi oshib moliyaviy ahvoli yaxshilanib bormoqda. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvida, qonunchilik va ijro hokimiyati organlarida faol ishtiroki davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. O'zbekiston Respublikasida parlament va mahalliy kengashlarda ayollar ulushi yil sayin ortmoqda. Xotin-qizlarning siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat tashkilotlardagi faolligi ham oshib bormoqda.

Yurtimizda xotin-qizlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ularni zamonaviy bilim va kasb-hunarga o'rgatish, iqtidorli yosh qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun rag'batlantiruvchi stipendiyalar va grantlar ajratilmoqda. “Ilm-fan ayollari” loyihasi,

“Ayollar tadbirkorligi” akademiyasi, “Qizlar ovozi” klubi kabi tashabbuslar qizlar va ayollarning zamonaviy kasblarni egallashi, innovatsion faoliyatda ishtirok etishiga imkon bermoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar orasida ularning salomatligi, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilinishi alohida o'rin tutadi. Xotin-qizlar va bolalar salomatligini asrash, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va sog'lom turmush tarziga targ'ib qilish davlat salomatlik dasturlarining ustuvor yo'nalishlari qatoridan joy olgan.

Mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha qonun va qarorlar, oilani mustahkamlash dasturlari izchil amalga oshirilmoqda. Tibbiy xizmatlar, onalar va bolalarni ijtimoiy himoya qilish, bepul skrining va immunizatsiya tadbirlari keng miqyosda yo'lga qo'yilgan. Amalga oshirilayotgan har bir ish huquqiy jihatdan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qator qonunlarida xotin-qizlarning huquqlari aniq belgilab qo'yilgan. “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonun, “Xotin-



MUNIRA RAXIMOVA,
“Kutubxona-axborot
faoliyati” ta'lim yo'nalishi
bitiruvchisi

qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonun, va boshqa huquqiy hujjatlar xotin-qizlarni har tomonlama himoya qiladi. Respublika sud tizimida gender tenglik masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy faolligini oshirish, huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish, sog'lom va mustahkam oilani barpo etish sohasidagi chora-tadbirlar, islohotlar yuqori natijalar bermoqda. Yosh avlod tarbiyasi, jamiyat taraqqiyoti va barqarorligida xotin-qizlar tutgan o'rni yanada mustahkamlanmoqda.

Qutqarilishni istamaydigan olomonni qutqarish kerakmi?

Tomas Mor “Utopia” nomli asarida Platonning fikrini shunday keltiradi: *“Agar kishi har kuni katta bir to‘da yomg‘irga yugurganini va ho‘l bo‘lishdan zavqlanganini ko‘rsa, agar u ularni bo‘rondan qochib, uylariga qaytishga undash befoyda ekanini va ular bilan gaplashganda kutilishi mumkin bo‘lgan yagona natija o‘zining ham ular kabi shalabbo bo‘lishi ekanligini bilsa, u uy ichida qolgani ma‘qulroq. Boshqalarning nodonligini tuzatishga yetarli ta’siri bo‘lmagani bois o‘zini asrab qolishga g‘amxo‘rlik qilmog‘i darkor”.*

Ba’zi odamlarga noto‘g‘ri yashash tarzidan ko‘ra yaxshiroq yo‘lni har qanday yo‘l bilan ko‘rsatishingizga qaramay, o‘z qarashlaridan tonmaydi. Chunki ularning ongidagi stereotip yillar davomida yangilanishlarni ko‘rmaganliklari uchun qotib qolgan bo‘ladi. Yoki sizning haqiqatingiz mantiqli tuyilganda ham butun boshli hayot yo‘li yolg‘ondan iboratligini his qilish qo‘rquv uyg‘otadi. Moslashuvchan bo‘lmagan miya kuchli argument kelganda qarshi hujumga o‘tadi. Hatto yangilikni tahlil qilib ko‘rishga ham urinmaydi. Chunki ularda ishonch kuchli bo‘ladi. Yashash tarzidagi qadriyatlarini eng ko‘p ulug‘lagan odamlaridan o‘rganganligi asl haqiqatni qabul qilishga yo‘l qo‘ymaydi. Bolaga mustaqil fikr yuritishga qo‘yib berilmasa, ota-bobosi aytgan hayot qoidalariga bir umr bo‘ysunib yashaydi. O‘zidan oldingi ajdodlari shunchalar ilohiylashadiki, ular aytganlari va amal qilganlari qonunga aylanadi.

Hayot yo‘li halokatdan iborat bo‘lgan odamlarga qilayotganlari noto‘g‘ri ekanligini shunchaki gap-so‘z bilan tushuntirish mushkul. Agar ular bir olomon, siz yolg‘iz bo‘lsangiz, bu uchun juda ko‘p

ter to‘kishingizga to‘g‘ri keladi. Bu yillar davomida sa’y-harakat qilishni talab qiladi. Yoki bu uchun har qanday munosabatga tayyor turishingiz kerak. Axir kimningdir ajdodlari amal qilgan va u davom ettirayotgan qadriyatlarni yo‘qqa chiqarish ularga qarshi kurashishdek gap.

Platon “ho‘l bo‘lishdan zavqlanish” deyilganda panaga yashirinish imkonini bo‘la turib, yomon ob-havoga chidash asnosida undan rohatlanishni nazarda tutmoqchi. Misol uchun 30 yoshli kishida, agar unda yangilikni qabul qiladigan salohiyat bo‘lmasa, 30 yillik qarashlaridan voz kechishdan ko‘ra, umrining qolgan qismini ham shu tarzda davom ettirish qulayroq. U allaqachon o‘rganib qolgan. U uchun shu yo‘ldan yurish qulay. Undan oldin shu yo‘ldan yurib, yashab o‘tganlar ortiqcha yo‘qotishlar qilmagan, bir umrguzaronlik qilgandek tuyiladi. Hammasini yangidan boshlash uchun qurbonliklar qilishdan qo‘rqadi.

Ustiga-ustak turli sabablar bilan nazariy sof bilimlarni olish imkoniyati unda bo‘lmagandir. Insonda o‘zini anglash ko‘nikmasi bo‘lmasa, hayot beradigan darslardan ham tajribaviy bilimlarni

o‘zlashtira olmaydi. Bu xildagi odamlar uchun kundalik uchraydigan muammolar odatiy hol va bunday bo‘lishi tabiiy. Albatta, tabiiy, qachonki bularning amalga oshishiga insoniyatning o‘zi zamin yaratib bersa. Yuz beradigan xato-kamchiliklarni tezda unutib yuborish o‘rniga uni ustida tahlil olib borilsa: qanday kelib chiqdi, nima sabab bo‘ldi, oqibatlar, talafotlari nimalarga ta’sir ko‘rsatdi, yana sodir bo‘lmasligi uchun nimani oldini olish kerak kabi savollar atrofida bosh qotirilsa, shuning o‘zi ham bir kitob mutolaasi o‘rnini bosadi.

Xo‘sh, endi asosiy savolimizga qaytamiz. Agar o‘zgarmasdan odatiy hayot tarzi, nohaq qadriyatlariga nisbatan ishonchlaridan voz kechmoqchi bo‘lishmasa, buning asnosida men ham talafot ko‘rsam, ularni o‘z hollariga qo‘yardim. Ularning qilmishlari evaziga men ham halovatimni yo‘qotadigan bo‘lsam, ulardan uzoq turganim yaxshi. Balki insoniylik va vijdon yanada ustunlik qiladigan bo‘lsa, bu kurashda o‘z osoyishtaligimni qurbon qilar edim. Ammo ba’zi odamlar o‘zgarmas. Ularning hayotdagi missiyalari shundan iborat bo‘lish ehtimoli bor. Ular o‘zlaridan keyingilar va bir vaqtning o‘zida boshqa zamondoshlari to‘g‘ri xulosaga kelishi va qaror qabul qilishi uchun oxirigacha shunday yashashlariga qo‘yib berish kerakdir.

Shunga qaramay, kurashishdan ko‘ra qutqarib qolishga arziydigan o‘sha olomon ichida hali mustaqil qaror qabul qilishga juda kichiklik qiladigan bolalar bor. Kattalarni o‘zgartirishga sarflangan kuch-



JAVOHIR NE‘MATOV
O‘zDJTU

**“Xalqaro jurnalistika”
ta’lim yo’nalishi
3-bosqich talabasi**

quvvatni bolalarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashga ishlatish kerak. Bu unchalik ko‘p energiya ham talab qilmaydi. Haqiqatni ularga uqtira olsak, bas. Stereotiplari o‘zgarmas ulg‘aygan odamlarni hayotning o‘zi munosib yerga boshlab qo‘yadi.

Tarix guvohki, qutqarilishni istamaydigan odamlar sabab din, ilm-fan, san’at qanday yo‘qotishlar qilganiga. Siz ularni o‘zgartirmoqchi bo‘lganingizda, ular ham sizni o‘z saflariga tortib olishmoqchi bo‘lishadi. Bu yerda masofa saqlash to‘g‘ri bo‘lar edi. O‘zgarish va yangilik nima ekanligini anglagan inson eng ko‘p buni o‘zida tatbiq etsa, evrilishni yaxshi tomonini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishganda, ehtimol ular ham sinab ko‘rishgan bo‘lard.

KELAJAK NECHA TILDA GAPIRADI?

XXI asrni ko‘pincha sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar va globallashuv asri deb ta’riflaymiz. Ammo bu uch omilning barchasini bir-biriga bog‘lab turgan eng muhim vosita – tildir. Texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, iqtisodiyot qanchalik kuchaymasin yoki davlatlar o‘rtasidagi masofalar qanchalik qisqarmasin, insonlar bir-birini tushunmas ekan, taraqqiyotning haqiqiy mazmuni yo‘qoladi. Shuning uchun bugun dunyo oldida “Qaysi tilni o‘rganish kerak?” degan savoldan ko‘ra, “Kelajak necha tilda gapiradi?” degan savol dolzarb bo‘lib bormoqda.

Til oddiy aloqa vositasi emas. U millatning tarixiy xotirasi, madaniy kodi va tafakkur tizimidir. Har bir tilda o‘sha xalqning dunyoni anglash usuli mujassam. Demak, yangi tilni o‘rganish shunchaki yangi so‘zlarni yod olish emas, balki boshqa bir xalqning dunyoqarashini anglash demakdir. Shu ma’noda ko‘p tillilik insonning nafaqat bilim doirasini, balki tafakkur chegaralarini ham kengaytiradi.

Bugungi geosiyosiy va iqtisodiy jarayonlarga nazar tashlasak, davlatlarning raqobati endi faqat tabiiy boyliklar yoki harbiy salohiyat bilan belgilanmayotganini ko‘ramiz. Bilim, innovatsiya va inson kapitali asosiy ustunlikka aylanmoqda. Inson kapitalining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri esa ko‘p tillilikdir. Bir necha tilni biladigan mutaxassis xalqaro muzokaralarda, ilmiy tadqiqotlarda, diplomatik aloqalarda, biznesda va ta’limda boshqalarga qaraganda kengroq imkoniyatlarga ega bo‘ladi. U nafaqat tarjima qiladi, balki turli madaniyatlar o‘rtasida ishonchni shakllantiradi.

Ko‘plab rivojlangan davlatlarning ta’lim siyosati ham aynan shu tamoyilga asoslanadi. Bugungi kunda maktab yoshidanoq ikki yoki undan ortiq tilni o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardosh mutaxassis faqat o‘z kasbini yaxshi bilishi

bilan emas, balki xalqaro axborot maydoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish imkoniyati bilan ham baholanadi. Ilm-fanning asosiy qismi ingliz tilida, muhandislik va texnologiyalarning muhim qismi boshqa yirik tillarda rivojlanmoqda. Til bilmagan inson esa ko‘pincha vositachilarga qaram bo‘lib qoladi.

Til – tinchlik va hamkorlikning ham asosidir. Tarixga nazar tashlasak, ko‘plab ziddiyatlar bir-birini tushunmaslikdan boshlangan. Aksincha, xalqlar o‘rtasidagi ishonch ko‘pincha muloqot orqali mustahkamlangan. Shu sababli diplomatlar, tarjimonlar va xalqaro jurnalistlar ko‘pincha “ko‘rinmas ko‘prik quruvchilar”, deb ataladi. Ular so‘zlarni emas, ishonchni tarjima qiladilar.

Sun’iy intellektning jadal rivojlanishi esa ko‘p tillilik haqidagi bahslarni yangi bosqichga olib chiqdi. Bugun telefon ilovalari yoki neyron tarmoqlar soniyalar ichida o‘nlab tillar o‘rtasida tarjima qila oladi. Bu qulaylik, albatta, inson hayotini yengillashtirmoqda. Ammo shu o‘rinda muhim savol tug‘iladi: texnologiya tilning o‘rnini bosa oladimi? Javob aniq – yo‘q. Chunki til faqat ma’lumot uzatmaydi. U hazilni, kinoyani, milliy qadriyatlarni, tarixiy xotirani, hissiyotlarni va insoniy munosabatlarni ham ifodalaydi. Bir zumda jumlani tarjima qilishi mumkin,



MARJONA SAIDOVA,
**Samarqand davlat chet tillar
instituti Sinxron tarjima
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti**

ammo uning ortidagi ruhni his qilib bo‘lmaydi. Shu bois, sun’iy intellekt rivojlangan sari insonning haqiqiy til kompetensiyasi yanada qimmatli resursga aylanadi.

Ko‘p tillilikning yana bir e’tiborga molik jihati shundaki, uning shaxs kamolotiga ta’siridir. Turli tillarda fikrlash insonni stereotiplardan xalos qiladi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va murakkab vaziyatlarga moslashish qobiliyatini kuchaytiradi. Bir til bilan ulg‘aygan inson dunyoni bir derazadan kuzatsa, ko‘p tilli inson uni bir nechta derazadan ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada u voqea-hodisalarni kengroq tahlil qiladi, muqobil yechimlarni tezroq topadi va boshqacha fikrlaydigan insonlarni yaxshiroq tushunadi.



O'ZBEKTOSH TO'RAXONLI,
O'zbek Milliy Akademik drama
teatri xodimi,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

ALPOMISHNING YO'LI


Alpomishning yo'li – men tanlagan yo'l,
Bu yo'lga tikilgan hayotim, borim,
Murodtepa osha, Bobotog' osha,
Qutqarib kelaman musofir yorim.

Alpomishning yo'li qismatim so'zsiz,
Qaldirg'och singlimga tog'day suyanchman,
U cho'pon qiz emas bo'lar sulton qiz,
Uni qutqaraman zolim qo'lidan.

Alpomishlik menga taqdiri azal,
Boramni qullikdan asrashlik burchim.
Goh qalam tutmoqlik qilichdan afzal,
Alpning avlodiday ulg'aysin o'g'lim.

Alpomishlik fayzi tushgan chekimga,
Ostimda Boychibor, to'riq otgacha,
Otam qo'lidagi hassa o'rniga,
Jonim tirgak toki qiyomatgacha.

Alpomishning yo'li menga qismatdan,
Faqat meni kut, yor, yetti yil, xullas,
Xonning makri bilan Surhayl qazgan,
Tashvishlar chog'idan chiqib olsam bas!



**NARGIZA
SHODMONOVA,**
“Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish”
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

YAGONADIR O'ZBEK ELIM

Imorat-u binolari savlat to'kkan,
Paxtalari, bug'doylari yerni o'pgan,
Yurtboshimiz har go'shasin obod etgan,
Yagonadir o'zbek elim, yagona.

Mehridaryo elim yashar baxtiyor,
Xalqim soddadildir, xalqim hokisor,
Ayting, bunday go'sha yana qayerda bor,
Yagonadir o'zbek elim, yagona.

Kindik qonim to'kilgan tuprog'iga,
Tinchlik hamroh ko'kdagi bayrog'iga,
Zilol suvlar yarashgan irmog'iga,
Yagonadir o'zbek elim, yagona.



FERUZA JUMAYAEVA,
“Folklor va etnografiya” ta'lim yo'nalishi
(sirtqi) 3-bosqich talabasi


QO'NG'IROT ELIM

Qadim elda qo'ng'irotda,
Ko'pkarilar berilgan,
Ko'pkari bergan elning,
Erkamlari kerilgan.

Zotni berar bekovul,
Keladi etti ovul,
Hoy chavondoz egilgin,
Zotni olib kerilgin.

Halol ayir, zo'r ayir,
Minganing qora bayir,
Uloqni ol taqimga,
Bo'ynidan mahkam qayir.

Yomut otmi, lokay ot,
Arab otmi, orlov ot,
Buni mingan chavondoz,
Chiqaradi yaxshi ot.



UMRZOQ RO'ZIYEV,
“Kino va televideniye rejissyorligi”
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

ISHQIM BAHORI

O'zimcha kap-katta yigit bo'ldimda,
Turfa xiyla-nayrang chiqdi yo'limdan.
Tag'inki – chin oshiq, shoir emishman,
Onamni madh etmoq, kelmay qo'limdan.

O'zimcha boshimda tashvishim bisyor,
Oshkor aylamoqqa g'ururim to'siq.
Har turli o'ylarga bormangiz deya,
O'zimni tutarman og'ir va bosiq.

She'rlarda madh etgan “ishqim bahori”,
O'ylarman: qor bosib qoladi chog'i.
Yo'limdan uchragan guldun hasgacha,
Hech birin yolg'onin bitmas adog'i.

To'xtashga haqqim yo'q, hamon yo'ldaman,
Mehribonlarimning yo'q sarhisobi,
Lek jindek cho'qqiga erishar bo'lsam,
Barin bosib qolar manfaat tog'i.

Bir dam ayrilmoqdan qo'rqqan kimsaning,
Minnat cho'qqisida gullarkan bog'i.
Ular bari birday bog'bon erurki:
Har dam ortdan zarbga tayyor o'rog'i.

So'roqlar, so'roqlar, y'oqdir adog'i,
Bormikan beminnat mehr o'chog'i?
Sirtida kularman-u, ammo ichimda,
Yo'qotib qo'yaman hayot ardog'in.

Ohangrabo kabi o'ziga tortar,
Yonida g'am arib, quvonchim ortar.
Cheksiz va beminnat mehr o'chog'i,
Mehribon onamning, issiq quchog'i.

Demak, chin hayotga qadam qo'ydimda,
Onamni madh etmoq kelmay qo'limdan.
Ammoki, mehringiz dilimda tug'yon,
Shundayin ketarman, qolmay yo'limdan.





Aniq esimda, 1-sinfni bitirgan edim. Maktabda so'nggi qo'ng'iroq bo'lib o'tdi. Ustozim Munisa opaning aytishicha, yuz kun dam olar ekanmiz. Qandoq maza-ya... Endi darsni o'ylamay, ko'chada mazza qilib o'ynayman. Onam ham ertalabdan uyg'otmaydi. Otamni-ku aytimg. Soat yetti bo'lishi bilan

— Bolalarim, oltinlarim! — deya uyg'otishga tushadi.

Ishonasizmi, ertalabdan otamning mana shu: “Bolalarim, oltinlarim”, degan ovozi yuragimni o'yadi. Yana uyquning ayni shirin paytida: “Bolalarim, oltinlarim”... Alam qilarkan-da... Mana endi yuz kun miriqib uxlayman. Yashirib nima qildim, maktabni yoqtirmayman. Darsni deb bemalol ko'chada o'ynolmasam, maktabni deb uyquga to'ymasam... Ey-y... Uning ustiga uy vazifalarini bajarolmay xunobim oshsa... Yozuvim xunukligi uchun onam bir urishsa, matematikadan xato qilganim uchun otam ikki urishadi. To'yib ketdim shu maktabdan ham. Yana kamiga bir gal buvim, bir gal bobom kundaligimni tekshiradi. O'zicha meni imtihon qiladi. O'sha paytda buvimni ham, bobomni ham yomon ko'rib ketaman. Shu maktabni deb, bitta jonimga shuncha azob... Bo'ldi! Hammasidan yuz kunga qutuldim.

Xayolimni uzoqdan kelgan ovoz buzdi.

— Ozosh, Ozosh, to'xta!

Ortinga o'girilib qaradim. O'rtog'im Yulduz halloslab yugurib kelyapti. U bilan bir sinfda o'qiydim. Semizligini aytmasa, yaxshi qiz. O'zgina yugursa, hansirab charchab qoladi. Mana hozir ham ikki yuzi qizarib, men tomonga bazo'r yuguryapti.

— Ozosh, — shuncha chaqirsam ham eshitmading-a, o'pkasiga bir narsa tiqilib qolgandek, yutoqib gapirdi Yulduz.

— Eshitdim, mana qaradim-ku, — dedim bepisand.

— Qayoqqa ketyapsan?

— Qayoqqa bo'lardi, uyga.

— Yur, Nazonikiga bormaymizmi?

— Ey-y, Nazoni yoqtirmayman. O'ynagani chaqirsang: “Ukamga qarashim kerak”, deb eshigini yopadi.

— Nazoni o'ynagani chaqirmaymiz. Tut tergani boramiz.

— Tut?

— Ha, tut. Nazoning ko'chasidagi tut rosa pishib, yerga to'kilibdi. Kecha Shahnoz bilan borib, terib keldik. Idishimiz to'lib ketdi. Oyim tutni yaxshi ko'radi. Shuning uchun bugun ham termochimam. Yur, birga teramiz.

— Uydagilari ko'rib qolsa, urishmaydimi?

— Yo'g'-a. Buvisining o'zi: “Teraveringlar, bekorga bosilib ketyapti”, deb aytdi.

— Mayli bo'lmasa. Hozir papkamni tashlab, kiyimimni alishtirib chiqaman,

— dedim qiziqishim oshib.

— Kattaroq idish olgin. Tut rosa ko'p. Idishing to'lib ketadi, — deya bidirladi Yulduz.

Yulduz mendan to'rt uy narida yashaydi. Uchta singlisi bor. Eng kichik singlisi O'g'iloy hali beshikda. Onasi Farog'at kennoyi tikuvchi. Ko'pincha matosini ko'tarib, buvimning oldiga chiqadi. Bir narsalarni so'raydi. Buvim ham erinmay, matoni hali unaqasiga, hali bunaqasiga tashlab, astoydil bir narsalarni tushuntiradi.

Farog'at kennoyi qizi Yulduzning tamomila aksi. O'zi oriqqina. Harakatlari chaqqon. Shipillab tez yuradi. Tez gapiradi. Tiyrakkina. Yonib-chaqnap turadi. Keyin yaxshigina pazanda. Tandirda somsa yoki jizzali non yopsa, tansiq taom pishirsa, shirinlik tayyorlasa, bizning ham oilaga ilinib turadi. Yashirib nima qildim, Farog'at kennoyining qo'li ochiqligi uchun ham unga nisbatan mehrim tovlanadi. Ayniqsa, mevali pirogini juda yaxshi ko'raman-da.

Darvozadan kirmasimdan uydan shirin is taralyapti. Mening ham oyim pazanda. Maktabdan kelishimizga ovqatdan tashqari yana har xil shirinliklar ham pishirib turadi. Hovliga kirishim bilan ko'zim oyimni qidiradi. To'g'rirog'i, darrov oshxonaga qarayman. Ana, derazasi ochiq oshxonada oyim taomga kuymalanyapti. Kapgirni qozonga urib-urib qo'ydi. Demak, osh damlayapti. Shunaqa odati bor: kapgirga guruch yopishsa, qozonga urib-urib qo'yadi. Ana shunda kapgirga yopishgan guruch qozonga to'kiladi.

Supada bobom shakarob, toshkentchasiga aytganda, “achchu” qilyapti. Bugun tushlikka aniq osh ekan. Faqat osh bo'lsagina, bobom

achchuni o'zi tayyorlaydi. Achchuni bobom tayyorlasin-da... Ichida pomidor, bodring, piyoz, sarimsoq, bulg'or qalampiri, achchiq qalampir, shivit, rayhon... Xullas, achchuni astoydil tayyorlaydi.

Ochiq ayvonda buvim tikuv mashinasini g'izillatib, tikib o'tiribdi. Yon-atrofi matoga uyulib ketgan. Issiq kunlari ochiq ayvonda, salqin tushganda “katta uy”da tikkani-tikkan. Buvim tikyaptimi, o'sha joy to'zg'ib ketaveradi. Ayniqsa, gilam har xil rangdagi iplarga to'lib ketadi. Uyimizdan ayollarning qadami uzilmaydi. Kun davomida matoni qo'ltiqлагan bir nechta uzun-qisqa ayollarning tashrifiga ko'nikib ketganman. Buvim Qumariq mahallasida “Sanobar chevar” degan nom bilan dong qozongan. Shu sababli uyimizga: “Sanobar chevarning uyi shumi?” — deb yo'qlab keluvchi ayollar bisyor.



Buvim tikar-bichar ishlariga sho'ng'iganda, uncha-buncha odam diqqatini bo'lolmaydi. Salom berib, ichkari uyga kirib ketdim. Kiyimimni alishtirib chiqsam:

— Ha-a, keldingmi, Lo'lixon. Salom qani? — deydi.

— Salom berdim-ku,— desam, gapimni eshitmay yana tikuv mashinasini g'izillatadi.

Buni qarang, ayvon panjarasida tog'oracha turibdi. Chamamda, buni buvim ko'rmagan. Ko'rganida: “Yerga tushib ketsa, siri ko'chadi”, deya hovlini to'ldirib koyib berardi. Panjaradan oshib tushdim-u, tog'orachani olib, Yulduznikiga yugurdim. Uydan chiqib ketganimni hech kim ko'rmadi. Yulduzlarning eshigi ham biznikiga o'xshab, tunga qadar ochiq turadi.

— Yul-du-uz! — deya chaqiraman.

Pastakkina uyning deraza pardasini ochib, buvisi ko'rinadi.

— Ha-a, nima deysan?

— Yulduz ko'chaga chiqadimi?

— O'zi hozir ko'chadan keldinglar-ku, ming'llaydi Saodat opoqi.

— Tut tergani bormoqchidik, — deyman asta.

— Nima? Tut? Shu qoq peshinda-ya? — Opoqining ovozi balandlashdi.

— Yulduz ko'chaga chiqmaydi. Uyda ish ko'p. Ukasiga qaraydi.

Kampir jahl bilan deraza pardasini tortdi.

O'zi Yulduzning buvisini yomon ko'rardim-u, hozir yanayam yomon ko'rib ketdim. Qachon qarama, meni ko'rgudek bo'lsa, cho'qib-cho'qib oladi. Jag'i ochiq xotin. Lekin buvim bilan yaxshi chiqishadi. Gapi gapiga tushadi. Uyimizda katta mehmondorchilik bo'lsa, albatta tugun ko'tarib chiqadi. Mening buvim mahallada “Sanobar chevar” nomi bilan mashhur bo'lsa, Yulduzning buvisi “Saodat moxorachi” nomi bilan dong qozongan. Ha, mayli. Yulduzning buvisini kechirdim. Undan xafa emasman. Chunki u buvimning o'rtog'i.

Hafsalam pir bo'lib ortimga qaytar ekanman, darvozaga yaqinlashib qolganimda Yulduzning ovozi eshitdim.

— Ozosh, to'xta!

Yulduz xuddi koptokka o'xshab dumalab kelyapti.

— Ukangga qaramaysanmi? — deyman alam bilan.

Hansirab yonimga yetib kelgan Yulduz:

— Ukam emas, singlim! O'g'iloy beshikda uxlayapti. Yur, birga tut teramiz. Senga yordamlashib yuboraman, — deb qo'limdan “podrujka” qildi.

— Nega idish opchiqmading? — deyman bo'sh qo'lga qarab.

— Ey-y, oldin sening idishingga teraylik. Kecha terib kelgan tutim hali muzlatgichda turibdi, dedi-yu, birdaniga kulib yubordi. Kulgisida o'zini majburlayotgan ohang shundoqqina sezilib turardi.

— Nimasi kulgisi?

— Jinni, sochingdagi lentangni yechmabsan-ku, o'zicha dumaloq ko'zlarini suzdi Yulduz.

Oftobdagi soyamga qarasam, boshimning ustida bir narsa qo'nqayib turibdi. Oyim ertalab boshimning old qismidagi sochimni bir joyga to'plab, lenta bog'lab qo'ygan edi. Bugun maktabda oxirgi qo'ng'iroq bo'lgani uchunmi, lentani har doimgidan katta qilib gul bog'ladi. Bu turmakni “fontan” deydi. Ha-a, Yulduz bekorga kulmabdi. Uy kiyimi bilan boshimdagi “fontan”ga bog'langan katta gulchambar bir-biriga nomunosib edi.

Yulduz bilan arazlashib qoldik. Qadamlarini katta olib, mendan avval ildamladi.

— Qayoqqa? — deyman men ham bo'sh kelmay.

— Qayoqqa bo'lardi, tutga! Yur, bo'laqol, cho'zilmasdan. Buvim birpasga zo'rg'a ruxsat berdi.

Yulduz o'zi shunaqa. O'zini ko'rsatadigan odati bor. Yalintirgisi keladi. Maktabdayam yo'q joydan arazlab, yig'lab qo'rqitadi. Bironta chin do'stga yolchimagan. Men bilan chin do'st bo'lgisi keladi-yu, biroq men xohlamayman. Shahnoz bilan ham do'stlik aloqalari uzildi. Hozir Shahnoz Zulayho bilan qalin do'st. Men esa Malika bilan. Yulduz turli bahonalar qilib, bizga qo'shilgisi keladi. Ko'ksidan itarmaymiz. Baribir ishonchdan qolgan-da.

Mana muyulishdagi uchinchi darvoza Nazolarning uyi. Ko'chasiga salqin berib turgan tut daraxti chunonam to'kilibdi-ki, oyoq bosishga joy yo'q. Yulduz aytganicha bor ekan. Nazoning ko'chasida tut yomg'iri!

Yerdan tut terish anchayin qiyin ekan. Hozirgina to'kilgani bilan avvalroq to'kilganini saralab terguncha, xunobim oshdi. Yaxshiyamki, Yulduz terishib yubordi. Do'mboq qo'llari chaqqon ekan. Tut terish asnosida o'rtamizdagi araz ham tarqab ketdi. Chaq-chaqlashib tog'orachani ham tutga to'ldirdik.

O'zimda yo'q xursandman. Hozir uydagilar tutni ko'rib, mendan-da ko'proq sevinadilar. Meni maqtab-maqtab, maza qilib tutdan yeydilar. Shu xayolda darvoza tagiga uchib-qo'nib yetib kelibman. Yulduz mendan ikki-uch qadam ortda kelayotgan edi. U bilan xayr-xo'sh ham qilmay, shoshganimdan oyog'im chalishib, uyga kirib ketaveribman.

Darvozadan xatlashim bilan uydagilarning gangir-gungur ovozi eshitildi. Ayni payti. Ochiq ayvonda tushlik qilishyapti. Nasiba ammamning ham ovozi kelyapti. Buvim aytganidek, ammam o'z ismi bilan Nasiba. Qachon qarama, ovqat suzib tursak, dasturxon ustiga keladi. Shunda buvim ko'zi chaqnap:

— Voy, Nasiba! Nasibang qo'shilib turgan ekan. O'z oting bilan Nasibasan-da. Nasibang mo'l bo'lsin, — deya erkalab bag'riga bosadi.

Ismning inson taqdiriga ta'sirini qarang, tutga ham ammamning nasibasi qo'shilib turgan ekan. Ayvon panjarasi bo'ylab, o'ktam ovozda salom beraman:

— Assalomu alaykum!

— Va alaykum assalom.

Nigohimni ammamga qadab, yana alohida salom beraman. Qulupnayni shakarga botirib yeyayotgan ammam qo'limdagi tutga nazar ham solmay, alik oladi.

— Birpasda qayoqqa g'oyib bo'lding, G'oyibniso? — buvim urishgan ohangda so'raydi.

— Daydigul o'rtog'inikida daydib kelayotgandir-da, — bobom buvimga qo'shimcha qiladi.

Dasturxon to'rida odatdagidek bobom va

UZODA SHOBILOLOVA,

O'zDSMI

“Axborot-resurs markazi” bibliografi

buvim. Buvimning yon tomonida ammam. Pastroqda esa oyim, akam va ukam joy olishgan. Faqat adam yo'q. Bu paytda adam ishda bo'ladi.

Panjaradan bobomga mardonavor tut uzataman.

— Iye-ye, qayerdan terib kelding bu tutni, Oytovoq, — bobom qo'limdan tutni olib, yon yerga qo'yadi. — Bor, qo'lingni yuvib kel. Qorning ochib ketgandir.

Qo'limni yuvib keldim hamon yana malomatga qoldim.

— Ha-a, Lo'lixon. Ko'chadagilar tinchmi? Ko'chani tinchitib keldingmi? Qoq peshinda pomidorga o'xshab qizarib, qayoqlarni sanqib kelding? Jiyaningga ko'cha bo'lsa, shataloq otadi, ammasi. Lekin ikkita piyola chayib qo'yishga yaramaydi, buvimning hasrat sandig'i ochildi. Buvisiga bemehr qiz bo'ldi! Ikkinchi ko'yak tikib berganim bo'lsin bunga!

Buvimning bu kabi nish sanchishlariga o'rganib ketganman.

— Ko'rinib turibdi: ko'cha xandon, uy zindonligi. Sochidagi lentasini yechmay, ko'chaga chopibdi-ku, — ammam sadafdek tishlarini yarqirاتب kuldi.

— Namuncha mani qizimni cho'qidilaring. Ko'chaga bekorga chiqmagan. Mana, bizlarni o'ylab tut terib kelibdi-ku, — bobom tarafimni oldi.

— Maktabdan terib keldingmi tutni?, — so'radi akam.

— Yo'q, Nazolarnikidan terib keldim.

— Qaysi Nazo? Sinf doshimmi?

— Ha-a, sinfdoshingiz, — mag'rurlanib javob berdim.

Shu payt bir narsaning charsillab singanidan cho'chib tushdim. Dasturxon atrofiga qarayman. Bobomdan boshqa hammaning rang-quiti o'chgan. Bobomning o'tli nigohi menga qadalgan. Hattoki, nafasidan ham g'azab ohangi sochiladi. Charsillab singan piyola ekan. Piyolani devorga otib sindiribdi.

— Hoy, qiz! Tirmizak! Shumtaka! Tarbiyang shu darajaga borib yetdimi?! A?!

Bobomning vajoatidan qo'rqib, onamning ortiga yashirindim.

— Hali uyalmay-netmay yetimlarning rizqini bizga yedirmoqchimisan?! Buning savol-javobi og'irligini bilasanmi?! Ikki qulog'ing bilan eshitib ol! Yetimning haqqi yetti daryoni quritadi! Tur o'rningdan! Tutni ol-da, egasiga tashlab kel. Tut yeging kelsa, aytmaysanmi, bozordan olib kelardim. Yetimning rizqiga ko'z tikkuncha, ko'zim oqib tushsin!

— Bo'ldi, adajon. Bilmagan-da nevarangiz. Hozir tutni egasiga oborib beramiz. Bola-da endi. O'yinqaroqlik qilib teribdi-da, onam vaziyatni yumshatdi.

Qoldim, qoldim, tut terib baloga qoldim. Tutni qanchalik xursand bo'lib uyga keltirgan bo'lsam, hech qancha vaqt o'tmay, tut to'la tog'orachani Nazolarning oshxona derazasiga qo'yib, shunchalik tushkun kayfiyatda ortimga qaytdim.

Yillar o'tib, ulg'ayib, hayotning past-baland, o'nqir-cho'nqirlarini ko'rib angladimki, chindan ham yetimning haqqi yetti daryoni quritar ekan. Bobom uchta yetimning haqqidan azbaroyi qo'rqib, bir dona tutni ham dasturxonga ravo ko'rmabdi. Keyinroq onamdan bilishimcha, Nazokatning otasi jigar saratoni bilan o'ttiz bir yoshida olamdan o'tgan ekan. O'shanda Nazokat olti yosh, katta ukasi to'rt yosh, kichigi esa ikki oylik chaqaloq bo'lgan ekan. Bobosi farzandidan so'ng atigi besh oygina yashashga o'zida kuch topa olibdi. Buvisi ayriliqlarga kuya-kuya hassaga tayanib, ko'z nurini yo'qotibdi. Onasi ko'rpako'rpacha qavib, dalada dehqonchilik qilib, uch farzandni voyaga yetkazibdi. Halol-pokdomon, mehnatkash ayolli bilan el orasida hurmat topibdi. El-ulus bu ayolning sabriga, vafu va sadoqatiga hanuz tahsinlar aytar ekan.

Har yili tut pishiqchiligidan o'sha voqea ko'z oldimda gavdalanaveradi. Tut voqeasi menga bir umrlik saboq bo'ldi. Bobomning o'sha so'zi qulog'imga bir umrga quyildi:

“Yetimning haqqi yetti daryoni quritadi!”

Mening faxrim – yurt posboni

Bizning kelajagimizni o'ylab harakat qilayotgan, Vatan tinchligi uchun jonini garovga qo'yayotgan harbiy xizmatchilar fidoyi insonlar ekanligi e'tirofga loyiqdir. Zero, harbiylar xalqimizning tinch uyqusi va xavfsizligi uchun jonini ayamaydilar.

Tunda biz bimalol uxlayotganimizda, yurtimiz posbonlari uyqudan kechib, vatanimizning har bir chegarasini tun-u kun qo'riqlaydilar. Askarlar issiqda ham, sovuqda ham, changda ham, qorda ham o'z vazifasini sidqidildan bajaradilar. Zotan, ularning fidoyiligi tufayli biz o'zimizni xavfsiz his qilamiz.

Inson qadri uning qilgan xayrli ishlari va Vatan oldidagi xizmati bilan o'lchanadi. Mana shunday fidoyi insonlar bor ekan, yurtimiz bayrog'i hamisha baland, xalqimizning boshi hamisha mag'rur bo'ladi. Qahramonimiz podpolkovnik Jumanazar Rahmonqulovning hayot yo'li biz kabi yoshlar uchun haqiqiy yo'lchi yulduzdir. Men tushundimki, qahramonlik faqat jang maydonida emas, balki o'z ishiga bo'lgan cheksiz mas'uliyatda ham namoyon bo'lar ekan.

Men ham kelajakda o'zim tanlagan sohamdan qat'iy nazar, mana shu qahramonimiz kabi fidoyi bo'lishni, yurtimiz ravnaqi uchun astoydil xizmat qilish oliy maqsadim deb bilaman. Zero, Vatanni sevish, uni nafaqat himoya qilish, balki jamiyatning har bir qarich tuprog'ini ardoqlash va kelajak avlodga tinch-omon yetkazish muqaddas burchimizdir.



Mening qahramonim, mening faxrim bo'lgan bu insonning xotirasi qalbmida mangu yashaydi. Chunki u nafaqat oddiy bir harbiy, balki mening uchun haqiqiy qahramon, jasorat va vatanparvarlik timsolidir. Uning yo'lidan borish, shunday fidoyi bo'lish, mening eng katta maqsadim. Men uning munosib davomchisi bo'lishga, u ishongan va orzu qilgan tinch va obod kelajakni qurishga bor kuchimni sarflayman. Toki, yurtimiz sarhaddari mustahkam, xalqimizning xotirjamligi abadiy bo'lsin!

QUVONDIQ YUSUPOV,
"San'at jurnalistikasi" ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Iqtibos

"Men o'laman, lekin sen yashaysan..."



Charlining allaqachon davri o'tdi, Jeraldine! Ertami-kechmi, sahnada egningdan tushmaydigan oq ipakli kiyim o'rniga qabrim tepasiga qora kiyim kiyib kelasan. Hozir seni xafa qilmoqchi emasman. Faqat vaqti-vaqti bilan oynaga qarab qo'y, mening chehramni ko'rasan. Hatto tomirimdagi qon muzlab qolganida ham, otang Charlini unutishingni xohlamayman. Men farishta emasman, lekin har doim ilhomlantiradigan inson bo'lib qolaman.

(Charli Chaplinning qiziga yozgan maktubidan)

Tafakkur

HECH QACHON KECH
QOLMADINGIZ!

Bir necha marta yo'ldan qaytgan bo'lsangiz ham,
Bir necha marta yo'ldan qaytarilgan bo'lsangiz ham,
Dunyoning barcha gunohlarini orqalab olgan bo'lsangiz ham,
Hayotingizdagi har narsada o'zingizni aybdor deb his qilsangiz ham,
O'zingizni "Qalbingiz" tarafidan qabul etilishingizga ishonmasangiz ham,
Shunda ham siz "O'zingizga, Qalbingizga" qarab yuring!
Hech kim sizga ishonmasa ham,
Siz o'zingizga ishoning...



JALOLIDDIN RUMIY



ISTE'DOD – bu avvalo did, yaxshi did egasi bo'lish qobiliyati, deguvchilar ham bor. Iste'dod – bepoyon tushuncha. U ta'rifga siqqanda edi, uni ma'lum xususiyatlar doirasida chegaralash mumkin bo'lganda edi, odamlar yo'q iste'dodni tarbiyalab bor qilgan bo'lardilar. Gorkiy, iste'dodning 99 foizi mehnat deganini tug'ma iste'dodi bo'lmagan odam mehnat

bilan chinakam shoir yoki bastakor bo'lishi mumkin deb tushunmaslik kerak. Har qalay 99 degani yuz emas. Suv normal sharoitda yuz gradusda qaynaydi. 99 gradus isigan suv – qaynagan suv emas. Fors tilida qaynashni "jo'shidan" deydi. Ya'ni jo'shmoq. She'riyat ham jo'shmoqdir. Jo'shmoq uchun esa 99 foizdan tashqari o'sha kamtarin bir foiz – ya'ni tug'ma iste'dod kerak.

ERKIN VOHIDOV

She'rni tahlil qilish juda ham go'zal qizning kiprigini sanash bilan baravar. Kiprik sanashga berilib ketib, go'zallikning asl mohiyatidan bexabar qolib ketasiz.

Ibrohim G'AFUROV



Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti



Bosh muharrir
Baxtiyor YAKUBOV

Tahrir hay'ati:
Hamdam ISMOILOV,
Oybek DAVLATOV,
Doniyor MIRZO
Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA
Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 30.07.2026-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda